



QURILISH ISHLARI 2020-yilning yanvar-mart oylari holatiga

Raqamlar:

Qurilish ishlari
hajmi -
690,0 mlrd. so'm

Yirik qurilish
tashkilotlari ulushi
19,4 %

Kichik korxonalar va
mikrofirmalar
ulushi -
50,1 %


Norasmiy sektor
ulushi -
30,5 %

2020-yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyatida jami 690,0 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,9 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmining yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 134,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 19,4 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,7 marta o'sdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 50,1 % yoki 345,6 mlrd. so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga esa 30,5 % yoki 210,2 mlrd. so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 153,8 % ni tashkil etdi.




2020-yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyatida jami 690,0 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,9 % ga ya'ni 231,5 mlrd. so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

2020-yil yanvar-mart oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 134,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,7 martaga yani 119,0 mlrd. so'mga ko'paydi. Hamda jami qurilish ishlar hajmining 19,5 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmi 345,6 mlrd. so'mga to'g'ri keladi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,4 % yani 27,0 mlrd. so'mga ko'paydi. Hamda jami qurilish ishlar hajmining 50,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasi 210,2 mlrd. so'mga to'g'ri kelib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 153,8 % ga yani 85,5 mlrd. so'mga ko'paydi. Hamda jami qurilish ishlar hajmining 30,5 % ni tashkil etdi.





IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd. so'mda)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 426,2 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,8 mlrd. so'mga ko'paygan, hamda jami qurilish ishlar hajmining 61,8 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 155,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 86,4 mlrd. so'mga ko'paygan, hamda jami qurilish ishlar hajmining 22,5 % ni tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 108,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 19,3 mlrd. so'mga ko'paygan, hamda jami qurilish ishlar hajmining 15,7 % ni tashkil etdi.

Yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari**
- Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari**
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari**

Yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari**
- Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari**
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari**

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari bajarilmagan bo'lib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 100 % ga kamaydi. Bunda kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 50,8 % (7,3 % ga kamaydi) va norasmiy sektorning ulushi 49,2 % (7,9 % ga ko'payish) ni tashkil etdi.



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 80,9 % ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 63,5 % ga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 19,0 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 62,8 % ga kamaydi. Norasmiy sektorning ulushi 0,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,4 % ga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yilga nisbatan 6,3 % punktga ko'paydi va 7,8 % ni tashkil etdi. Qolgan 92,2 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,2 % punktga kamaydi.



Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 29,1 mlrd. so'm yoki 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 93,7 % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 660,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 136,4 % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda 4,2 % va 95,8 % ni tashkil etdi.






QURILISH ISHLARI HAJMI HUDUDLAR KESIMIDA



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo`yicha tarkibida Namangan shahri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududlarda bajarilgan qurilish ishlarining, 89,6 % yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan.




Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Namangan shahrida (227,5 mlrd. so'm yoki 147,9 %) – Shunga asosan jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan va kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylar hamda maishiy hizmat ko'rsatish obyektlarini qurib bitirish ishlari amalga oshirilgan;

Kosonsoy tumanida (74,6 mlrd. so'm yoki 163,3 %) - Shunga asosan jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes subyektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;

Namangan tumanida (81,1 mlrd. so'm yoki 131,7 %) - Shunga asosan jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;




Hududlar kesimida qurilish ishlarining o'sishi

№	Shahar tumanlar	2019-yil yanvar-mart (mlrd. so'm)	2020-yil yanvar-mart (mlrd. so'm)	O'tgan yilga nisbatan (%) da	Jamiga nisbatan ulushi (%) da
Viloyat bo'yicha jami:		458,5	690,0	133,9	100,0
1	Namangan sh.	135,6	227,5	147,9	33,0
<i>Tumanlar:</i>					
2	Mingbuloq	15,3	18,2	104,9	2,6
3	Kosonsoy	41,1	74,6	163,3	10,8
4	Namangan	54,6	81,1	131,7	11,8
5	Norin	21,8	28,5	119,4	4,1
6	Pop	25,2	31,4	109,8	4,6
7	To'raqo'rg'on	24,8	34,1	122,3	4,9
8	Uychi	47,1	58,9	110,6	8,5
9	Uchqo'rg'on	16,6	27,4	149,7	4,0
10	Chortoq	26,3	32,8	111,1	4,8
11	Chust	25,0	36,9	133,1	5,3
12	Yangiqo'rg'on	25,1	38,6	138,5	5,6

Hududlar kesimida qurilish ishlari o'sishi

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmini salmoqli hissasi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi, Xususan, Namangan shahri 227,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 47,9 % ga o'sdi, Kosonsoy tumanida 74,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan


yilning mos davriga nisbatan 63,3 % ga o'sdi, Pop tumanida 31,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,8 % ga o'sdi, Uychi tumanida 58,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,6 % ga o'sdi. Chust tumanida 36,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,1 % ga o'sdi, Yangiqo'rg'on tumanida 38,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 38,5 % ga o'sdi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 33,0 % ni tashkil etdi, Namangan tumanida 11,8 % ni tashkil etdi, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 8,5 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Norin tumanida ushbu ko'rsatkich 4,1 % ni Mingbuloq tumanida bu ko'rsatkich eng past 2,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Chortoq tumanida 4,8 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

**2020-yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining
umumiy hajmda hududlarning ulushi**
(umumiy hajmga nisbatan % da)



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi
Aloqa telefoni: (69) 227-84-85